



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

MUROJAAT SO‘ZLARI NUTQ ADRESATINI IFODALOVCHI VOSITA SIFATIDA

Mardon RAHMATOV*

Annotatsiya

Har qanday kommunikatsiya jarayoni subektlarning bir-biriga murojaatidan boshlanadi. Odatda, kommunikatsiyada suhbatdoshlar bir-biriga murojaat qiladi va suhbat jarayoniga mos kommunikatsiya vositalaridan foydalandi. Murojaat birligi sanaladigan undalmalar ham shunday vositalardan biri sanaladi. Murojaatlar aslida nutqning tabiiy turi – og‘zaki nutqqa xos bo‘lib, yozuvchi-shoirlar tomonidan tez-tez badiiy nutqqa ko‘chiriladi. Murojaat so‘zlari badiiy nutqqa ko‘chirilgan vaqtdan boshlab uning tarkibiy qismiga, uning bir komponentiga aylanadi va nutq adresatini, nutq egasining murojaatlari, chaqiriqlari yo‘naltirilgan, nutq obyekti – ichki adresatni ko‘rsatishga, nomlashga xizmat qiladi. Biz ushu maqolada Alisher Navoiyning lirik asarlarida qo‘llangan bevosita shoir (yoki nutq egasi)ning nutqi qaratilgan murojaatlar tahliliga e‘tibor qaratdik.

Kalit so‘zlar: kommunikatsiya, nutq egasi, adresat, ichki adresat, murojaat, murojaat birligi, nutq obyekti.

Vocative Words as a Means of Indicating the Addressee in Speech

Abstract

The communication process begins with the address of subjects to each other. Typically, interlocutors address each other and use communication tools appropriate to the conversational process. Addresses are one such tool. Addresses are, in fact, a natural type of speech – characteristic of oral speech – and are often transferred by writers and poets to artistic speech. From the moment these words of address are transferred to artistic speech, they become an integral part of it, one of its components, and serve to indicate and name the addressee of the speech, the addressee of the address, the speaker’s appeals, and the object of speech – the internal addressee. In this article, we focus on the analysis of the addresses used in Alisher Navoi’s lyrical works, to whom the poet (or speaker) directly addresses the speech.

Keywords: communication, speech owner, addressee, internal addressee, reference, unit of reference, object of speech.

O‘zbek tilida undalmalarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganishni ikki bosqichda o‘lib borildi. Dastlab, undalmalarning til birligi sifatida asosan gap strukturasi bilan bog‘liq jihatlari – sintaktik xususiyatlari tadqiq qilingan bo‘lsa

(Фуломов, 1941, 6), keyingi davr tadqiqotlarida esa undalmalarning mazmuniga – ularning semantikasi bilan bog‘liq jihatlariga e‘tibor qaratildi va o‘zbek tilshunosligi yangi mazmundagi tadqiqotlar bilan boyidi. Mazkur tadqiqotlarda undalma atamasi ostida o‘rganilgan qurilmalarning barchasi ham mazkur atama mohiyatiga to‘g‘ri kelmasligi, ularda undash ma‘nosi bilan birga murojaat ma‘nosi yonma yon yurishi, ba‘zan ulardan biri kuchli bo‘lishi yoxud ulardan faqat murojaat ma‘nosi bo‘lishi, ba‘zan undash ma‘nosi sezilmasligiga urg‘u beriladi: “... murojaat birligi (shakli) undalma terminiga nisbatan keng ma‘noni ifodalaydi va undalma murojaat birligining – umumiylikning xususiyligi – xususiy ko‘rinishi” (Ahmedova, 2008, 154).

Alisher Navoiy g‘azallarida murojaat shakllari sharq klassik she‘riyatida keng qo‘llangan an‘anaviy obrazlar tizimi bilan bog‘liq. Shoir kommunikativ markaz sifatida “o‘zi uchun nutq” yaratishda klassik poetik obrazga aylangan hamda ekspressivlikni ta‘minlovchi maxsus so‘zlarni tanlaydi va ular orqali ma‘no ko‘chirishga ham erishib poetik adresatning ishtirokini ham ta‘minlaydi. Masalan, *ko‘ngil, yurak, qosh, ko‘z, yosh* kabi inson a‘zolari nomlarini ifodalovchi so‘zlarga poetik ma‘no yuklaydi va ularga murojaat qiladi:

Asradim seni ko‘z ichra, ey yosh,

Qonima erdi tanug‘lug‘ osig‘ing. (G‘S 343)

Alisher Navoiyning g‘azallarida turli mazmundagi murojaatlarni qo‘llaydi. Ulardan biri *do‘st(lar)*. *Do‘stlar* murojaat shakli nutq egasi (lirik qahramon)ning nutqi qaratilgan shaxs. Uning sintaktik xususiyati jumlaning tarkibiy elementi – nosintaktik kategoriya, semantik xususiyati esa uning mazmunida chaqiruv, e‘tiborni qaratish semasining mavjudligi, .

Do‘stlar, bir chora men devonai shaydo uchun,

Kim o‘larmen ul paripaykar malaksiymo uchun. (G‘S 481)

Tasvir obyekti bo‘lgan va mazkur nutq vaziyatida bor deb tasavvur qilinayotgan shaxs (*do‘stlar*)ga nutqni yo‘naltirish orqali o‘quvchi tasavvurida lirik subyekt, ya‘ni lirik qahramondan tashqari yana bir – uchinchi bir shaxsning ishtiroki ham seziladi yoki uning borligi ham idrok qilinadi. Lirik jumla orqali lirik subyektning unga to‘g‘ridan to‘g‘ri “*do‘st(lar)*” deb murojaat qilishga imkon yaratgan. Bunday o‘rinlarda bu kabi adresatlar murojaatlarning, chaqiriq jarayonlarining obyektiga aylanadi. Murojaatlat ayni nutqning obyektiga aylanadi. Bundan tashqari shu o‘rinda g‘azalxon mazkur murojaatlarni, chaqiriqlarni o‘ziga ham qaratilganligini, tabiiy holda “*do‘st(lar)*” so‘zi ma‘nosida o‘zining ham ishtirokini his qila boshlaydi. Demak, undalmalarning mana shunday mazmuniy maydonni hosil qilishi o‘ziga xos kommunikativ markazni hosil qiladi, murojaat obyektining serqirraligini namoyon qiladi, deyishga asos bo‘ladi. Fikrimizning isbotini keyingi misolda ham ko‘rishimiz mumkin:

Do‘stlar, ko‘nglum hadisni demangiz tengri uchun

Kim, men ul devonayi sargashtadin bezormen. (G'S 479)

Shoir tilning lug'at boyligidan foydalanib g'azalning bosh mavzusi, g'oyasi, qolaversa, bayt mazmunidan kelib chiqib fikran she'riy jumla tuzadi, unga, she'riy ifoda mazmuniga mos, o'ziga juda yaqin bo'lgan poetik shaxsni, tasvir obyektni kommunikativ bo'lak sifatida jumla markaziga olib chiqadi va unga, adresatiga xitob qiladi. Bunday murojaatlar har qanday turdagi jonli va jonsiz predmetlar bo'lishi mumkin, hatto shoirning o'zi ham:

Dedimki: sud qilay jon berib visoli uchun,

Navoiyo, chu firoqida umr kechti, ne sud. (G'S 116)

Agar murojaat shakli uchun tanlangan so'zning ma'nosi xususiy xarakterga (maxsus an'anaviy poetik so'zlar) ega bo'lsa, ya'ni lirik subyekt murojaati yo'naltirgan obyektga to'g'ridan to'g'ri murojaat qila olsa-yu, lekin o'quvchi adresati bu murojaat ma'nosidan chetda qolsa yoki nutqni o'ziga yo'naltirilganlikni anglamasa, unda g'azalxon-adresat murojaatlarning kuzatuvchisiga, faqatgina uning tinglovchisiga aylanadi.

Mutribo, g'am bazmida to navha ohang aylading,

Za'flig' jismimni toru qomatim chang aylading. (G'S 346)

Ma'lumki, g'azal muayyan bir mavzuga bag'ishlangan, shoirning poetik g'oyalarini ochishga xizmat qiladigan yaxlit kompozitsion qurilishga ega bo'lgan she'riy asar. Uning tarkibiy qismlaridagi har bir bayt esa sintaktik-semantik jihatdan anchayin mustaqil. Bu mustaqillik, albatta, muallif uchun g'azalning bosh mavzusini yoritishda muhim o'rin tutadi. Shoir baytdan ko'zlagan maqsadini amalga oshirish, o'quvchi shaxsini faollashtirish uchun so'zning funktsional-semantik tabiatidan kelib chiqib, bayt mazmuniga mos va poetik obraz yaratadi:

Juz binafsha bog' aro gul ekmagil, ey bog'bon

Kim, libosi rangini istar bizing mirzo binafsh. (G'S 267)

E'tiborlisi, bayt tarkibidagi *ey bog'bon* undalmasi boshqa shu jinsdagi so'zlar: *gul*, *binafsha*, *bog'*, *binafsharang* – bilan birga bir tasnifiy guruhga kirib ularning umumiy ma'nosi orqali o'ziga xos she'riy ifoda yaratadi. Bu badiiy ifodalar orqali nutq egasi maxsus she'riy san'at turini yaratishga erishadi. Shuningdek, bunday undalmalar jumla tarkibida nutq egasining adresatga bo'lgan turli munosabatlarini ham ifodalaydi.

Shoir bu turdagi baytlarning mazmuniga muvofiq, aksariyat hollarda, mazmunan uyadoshlikni hosil qiluvchi so'zlardan foydalanadi va baytning mazmuniy yaxlitligiga erishadi:

Bo'lmasa *oltun piyola*, bo'lmasun, kel, ey rafiq,

Jom etib noranj nisfidin bo'lali jur'akash. (G'S 262)

Deding ul oy vasfin, ey roviy, yana *so'z demagil*

Xo'blardinkim, *so'zung erdi* bu erga tegru xo'b. (G'S 48)

Ey ishq, yana furqat o'tin *jonima* urdung,

Jismimni kul aylab, kulini ko'kka sovurdung. (G'S 354)

Tasviriy ifoda orqali yorni badiiy tasvirini yaratadi. Bunday tasvirlarda ham nutqiy adresat

Orazing *zar huqqalardin*, *ey malohat mash'ali*,

Mushafedur *lojuvardu oltun* aning jadvali. (G'S 623)

Shuningdek, she'riy asarlarda nutq egasi – shoirning kommunikativ pozitsiyasi bir-biriga qarama qarshi, ammo bir-biridan printsiptial farq qiluvchi ikki hodisani birlashtirib turish xususiyatiga ega. Bu ichki nutqning kommunikativ pozitsiyasi bilan bog'liqdir, ya'ni ichki nutq – ichki adresat ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan “o'zi uchun nutq”, ikkinchisi esa, o'zida tashqi adresatni nazarda tutuvchi (tashqi adresatga mo'ljallangan) nutq. Buni Navoiy obrazi orqali yuzaga chiqargan nutqi shaklida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan:

Ey Navoiy, har nasim ul gul harimi tavfidin

Kim, etar ravshan qilur ko'nglumdagi hirmon o'ti (G'S 503)

Shoir poetik olami bilan yo'g'rilgan navbatdagi poetik shaxsni baytning kommunikatsiya markaziga olib chiqishni niyat qiladi va u obrazda o'zini ko'radi: unga o'z ismi bilan xitob qiladi:

Ey Navoiy, har nasim ul gul harimi tavfidin

Kim, etar ravshan qilur ko'nglumdagi hirmon o'ti (G'S 503)

G'azalxon lirik baytni o'qir ekan, Navoiy murojaat so'zi ma'nosi uning lug'aviy ma'nosidan ko'ra yirikroq tushuncha ifodalanganini his qiladi. U shoirning murojaatlari zahirida Navoiy obrazidan tashqari shoirga tilda, dilda maslakdosh, hamfikir bo'lganlar, ya'ni tashqi adresat ma'nosi ham mavjud ekanligini anglaydi:

Ey Navoiy, xirqasin berdi, karomat ayladi

Kim, manga tartib vajhi rahni sahbo qildi shayx. (G'S 112)

Agar murojaat so'zlari III shaxsda ifodalangan shoir va ayni zamonda adresat, g'azalxon ma'nosi birga anglansa, bunday nutq qo'rinishiga nisbatan avtokommunikatsiya atamasi qo'llanadi.

Shuningdek, Alisher Navoiyning g'azallarida orasida adresat sifatida keng qo'llanilgan poetik obrazlardan biri – *ko'ngil*. SHoir *ko'ngil* murojaat shaklining mazmun doirasi keng: shoir uni har doim o'ziga yaqin deb bilgan shaxs va predmetlarga qarata qo'llagan va o'ziga xos poetik kommunikativ maydon hosil qilgan. Navoiy lirikasida ko'ngil – komil inson, orif, pir, rahnamo, donishmand, mutafakkir, oshiq, rind, do'st timsoli, ayni shu o'rinda, ko'ngil murojaat shakli – ichki adresat, shoir “meni”, shoir lirik qahramonining ruhiy holatini ifodalovchi vosita hamdir:

Yordin kelmish manga bir turfa maktub, ey ko'ngul

Kim, erur har satri, bal har lafzi marg'ub, ey ko'ngul. (G'S 373)

Shoir ichki adresat sifatida ba'zan o'zini "men" olmoshi yoki I shaxs shaxs-son ma'nosini ifodalovchi bog'lama yordamida maxsus ta'kidlaydi, ammo ko'ngil so'zi barcha ko'ngillarni, shu jumladan, adresatni o'zida mujassam qila oladi :

Ishq agar bo'lsa gunah menmen gunahkor, ey ko'ngul,

Tonmog'im nohaqdurur bu ishda chun haqdur guvah.(G'S 569)

Ko'ngil obraziga xos bu ikki jihat: uning bir vaqtda ham ichki, ham tashqi adresat (maslan, hammaslagi, do'sti ma'nosida) deyarli barcha g'azallarda kuzatiladi, xoh u matla baytda bo'lsin, xoh maqta baytda:

Ey ko'ngul, ul ahdi yolg'on mehr shartin qildi tut,

Ahdini poyonig'a etkurmayin ayrildi tut. (G'S 70)

Shoirning pand-nasihat mavzudagi g'azallarida o'zgaga murojaat usulidan keng foydalanadi va shoir o'z maqsadini amalga oshirishda o'zining boy fantaziyasini ishga tushiradi: oshiq-u yor, gul-u maysa, giyoh, tog'-u toshga, xullas, tabiatga, borliqqa, koinot jismlariga murojaat qiladi va shu yo'l bilan bayt mazmuniga mos poetik obraz yaratadi. Bayt/misra tarkibiga olib kirilgan har bir murojaat shakli bilan ifodalangan poetik obraz shoir ijodiy niyatini ifodalashda muhim komponent bo'lib xizmat qilgan va g'azalchilikdagi bu kabi ramziy-majoziy timsollar shoirning eng yuksak orzularini, ayni paytda katta muammolarni ifodalashga imkon yaratgan (Муллахўжаева, 2005, 102).

Ey sabo, sharh ayla avval dilsitonimdin xabar,

So'ngra degil ko'ngul otlig' notavonimdin xabar.(G'S 15.)

Ta'kidlash o'rinliki, Alisher Navoiy g'azallari tarkibida qo'llangan murojaat shakllari aksariyat hollarda ey undovi bilan qo'llangan. Bunday hollarda undalmalar, shoirning spontan (birdaniga, kutilmaganda) his-hayajonni, ehtirosni yuzaga chiqaruvchi tasviriy vosita sifatida uning tarkibida temprallik (nutq momentiga aloqadorlik)ni hosil qilgan, u bilan bog'liqlik, modallik so'zlovchining kuchli ehtirosini yuzaga chiqargan (Бобокалонов, 2006, 93).

Ey musavvir, chekma nozir mendin o'zga zinhor,

Daftari ishqim aro yozilsa ul oy suvrati. (G'S 577)

Alisher Navoiyning g'azallarida murojaat so'zlari tematikasi turli tuman. Ular adresatlarning ijtimoiy mavqeni, kasbi yoki boshqa xususyatlarini atash emas, balki turli poetik obrazlarni, poetik kayfiyatlarni yaratish uchun qo'llangan. Bunday murojaat so'zlari orqali ifodalangan murojaat xarakterlari konkret emas, balki shartlidir. Masalan: *yo fattoh, ey munajjim, ey voiz, ey hakim, ey bog'bon, ey soqiy, ey pari, ey roviy, ey habib, ey tabib, ey zohid* va b.

Foydalanilgan adabiyotlar

Rahmatov M. (2023). Alisher Navoiy lirikasining sintaktik, semantic va kommunikativ xususiyatlari. *Filol.fan.dok. (DSc)....dissertatsiyasi*. Toshkent.

Абдуруҳмонов Ғ. (1962). Ўзбек тили синтаксисидаги мураккаб гаплар масаласига доир. // *Ўзбек тили ва адабиёти*.

Акбарова З.А. (2007). Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи. *Филол.ф.н...дисс.* Тошкент.

Аҳмедова Н. (2008). Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи. *Филол.ф.н....дисс.* Тошкент.

Бобокалонов Р. (2006). *Ўзбек тилида гап синтаксиси ва сўз-гапларнинг систем-структур талқини*. Тошкент, Фан.

Муллахўжаева К. (2005). Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги («Бадоеъ ул-бидоя» девони асосида). *Филол.ф.н...дисс.* Тошкент.

Сайфуллаев А.Р. (2001). Семантика и грамматика членов предложения в современном узбекском языке: *Афтореф. дис... канд. фил.наук.* Тошкент.